

NUQSON DALOLATNOMASI

“Tasdiqlayman”

Toshkent viloyat


Ohangaron shahar

Maktabgacha ta'lim

bo'limi mudiri:

A.I.Xamrayev

2022 yil



“ Ohangaron shahar MTB ga qarashli DMTT lariga asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qish - bahor mavsumi uchun zahiraga qo'yish (zakladka) uchun shartnomalar tuzish to'g'risida”

Biz quyida imzo chekuvchi komissiya a'zolari Ohangaron shahar MTB mudiri, A.I.Xamrayev, Bosh xisobchi Z.Miryunosova, iqtisodchi Sh Tojimurotov, DMTMF va MXMMSH mudiri B.Adilova, Tovar modiy boyliklar xisobchisi N.Axmedova, ishtirokida ushbu dalolatnomani tuzildi.

Dalolatnoma shu haqidaki Ohangaron shahar MTB ga qarashli DMTT larida 2022-2023 yil asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qish-bahor mavsumi, zahira (zakladka) mahsulotlarini sotib olish va shartnoma imzolash uchun Ohangaron shahar xokimining 2018 yil 26 martdagi 51-F sonli Farmoyishiga muvofiq doimiy ishchi guruh tomonidan shahar hududidagi savdo majmualaridan olingan ma'lumotlar asosida ijtimoiy muhim turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining joriy yilning 3 oktyabr sanasidagi solishtirma dalolatnomasiga asosan mahsulotlarning narx-navo ma'lumotlari o'rganib chiqildi. O'rganish jarayonida qish-bahor mavsumi, zaxiraga qo'yish (zakladka) uchun kartoshka o'rtacha narxi 4 500 so'mdan 4 200 so'mgacha, piyozning o'rtacha narxi 4000 so'mdan 3800 so'mgacha, sabzi o'rtacha narxi 4000 so'mdan 3700 so'mgacha, guruch o'rtacha narxi 15000 so'mdan 13000 so'mgacha ekanligi aniqlandi.

Kartoshka sifatiga qo'yiladigan talablar qo'yidagilardir. Tuganak yetilgan, sog', butun, quruq, toza, o'simtasiz bo'lishi, ertagi kartoshka uchun uzunlik diametri kamida 3 sm va kechkisi uchun 5 sm bo'lishi lozim.

Iste'mol uchun ishlatiladigan bosh piyozlar pishgan, sog'lom, butun, quruq. Shakli va rangi shu botanik navga xos, sirtqi po'stlog'i yaxshi qurigan, bandi 2-5 sm qoldirib qirqilgan va yaxshi qurigan bo'lishi lozim. Yassi shaklli piyoz boshlarining o'lchami eng katta diametri bo'yicha 3 sm dan kam bo'lmasligi, boshqa shaklli piyozlarning o'lchami esa 4 sm dan kam bo'lmasligi lozim.

Sara sabzi quruq, so'limagan, kasallanmagan, butun, yorilmagan toza, hasharot tegmagan, shakli va o'lchami bir xil, kamida 2 sm uzunlikdagi poyali bo'lishi lozim. Sabzining ko'ndalang kesimi diametri 2,5-6,0 sm keladigan bo'lishi kerak. Chirigan, dimiqqan, yaxlagan, begona ta'm va hidli sabzilarni ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

Guruchning rangi oq rang, guruchning namligi uzoq saqlash uchun 14%, kundalik iste'mol uchun 15,5 % bo'lishi shart.

Saqlab berish sharoiti: Ohangaron shahar MTB tasarrufidagi DMTT larning omborxonalari qish-bahor mavsumidagi asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z omborxonalarida saqlash hamda DMTT larning talabnomalariga muvofiq har biriga joylashgan haritadagi umumiy maxsulot miqdorini 5 ish kuni ichida yetkazib berishlari shart (**omborxonada Ohangaron shahridan 30-35 km masofadan uzoq bo'lmagan hudud bo'lishi shart**).

guruch quruq, yorug', toza, yaxshi shamollatiladigan omborlarda 0° dan 8°S gacha haroratda 60-70% nisbiy namlikdagi havoda saqlanadi, yormani minus temperaturada ham saqlash mumkin. Ammo temperaturaning keskin o'zgarib turishiga sira yo'l ko'yilmaydi. Bu'sdov, qora bu'sdov va arpa yormalari uzoq vaqt saqlana oladi. Tarik, sul'i va makkajo'xori

yormalari esa uzoq saqlana olmaydi, chunki ularda tez achiydigan yog' bor. Yil fasli va kaerda joylashishiga qarab yorma va dukkakli ekinlarga tabiiy kamayish normasi (0,25-0,30%) belgilangan

Kartoshka uzoq saqlanganda ombordagi harorat va havo nisbiy namligining o'zgarishi (dekabr`-aprel` oylarida, foiz hisobida)

Saqlash usuli	Harorat gradus	Namlik %
Yerto'lada saqlash	8-10,3	81-94
Yer to'lada faol ventilyatsiya qo'llanilganda	2,3-5,8	76-84
Sun'iy sovutiladigan, radiatorli omborlarda	2,1-1,7	95-98
Sun'iy sovutilib, havo bilan shamollatiladigan omborlarda	12-1,9,7	93-98

Sabzavotlarni saqlash tartibi

Sabzavotlar	Saqlashning muqobil harorati	Havoning nisbiy namligi (foiz)	Saqlash muddatlari (oy hisobida)
Sabzi	0	90-95	5-8
Kartoshka	2,5	90-95	5-8
Bosh piyoz	-1-0	80 gacha	6-9

Ohangaron shahar MTB tomonidan 3 ta asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (kartoshka, piyoz, sabzi,) xarid qilishda dehqon bozorlarida shakllanadigan o'rtacha narxlardan kelib chiqqan holda, bahor mavsumi uchun zaxiraga qo'yish (zakladka) uchun quyidagi qishloq xo'jalik mahsulotlari quyidagi narxda davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

№	Mahsulot nomi	Davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirish narxi	O'lchov birligi	Jami umumiy summasi
1	Saralangan kartoshka (Pikasso)	4500	1.684	7 578 000
2	Saralangan piyoz (sariq)	4000	8T	32 000 000
3	Saralangan sabzi (mushak)	4000	9.6T	38 400 000
	jami			77 978 000

Bosh xisobchi:

DMTMF va MXMMSH mudiri :

Iqtisodchi:

Tovar moddiy boyliklar xisobchisi:

Z.Miryunosova

B. Adilova

Sh.Tojimurotov

N.Axmedova